



## SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRARISH JARAYONINI TASHKIL ETISH

**Asqarova Feruza Imyaminjonovna**

*Farg'ona davlat universiteti iqtisod yo'nalishi sirtqi bo'limi talabasi.*

Korxonada o'z faoliyati maqsadlarini ro'yobga chiqarishga ishlab chiqarilayotgan mahsulot, bajarayotgan ishlari yoki ko'rsatayotgan xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish hamda ana shu asosda mehnat jamoasi a'zolarining iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarining hamda korxonada mol-mulki egasining manfaatlarini ta'minlash yo'li bilan erishadi. Korxonada o'z asosiy faoliyatini o'zining Nizomida ko'zda tutilgan maqsadlar va vazifalarga muvofiq ravishda amalga oshiradi. Korxonada Nizomi esa respublika qonun va qoidalariga asoslanadi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish eng yaxshi ishlab chiqarish natijalariga kam xarajat bilan erishish uchun ishlab chiqarishning moddiy va mehnat elementlarini vaqtda va muhitda maqsadga muvofiq optimal uyg'unlashtirish jarayonidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish ishlab chiqarish jarayonida mehnat va texnikadan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni tashkil etishga qarashlarni o'zgartirib yubordi.

Bugungi kunda bozordagi o'zgaruvchan talabga tez moslashuvchan, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun sharoit yaratib beradigan yuqori darajadagi jarayon sifatida qarash oldingi o'ringa chiqdi. Ishlab chiqarish samaradorligi uni tashkil etuvchi elementlardan birgalikda oqilona foydalanishga bog'liq. Ishlab chiqarish ushbu elementlarni o'zaro aloqadorlikda o'rganish va ishlab chiqarish maqsadlaridan kelib chiqib ulardan foydalanishning samarali usullarini va sharoitlarini tanlashni ko'zda tutadi.

Agar texnologiya ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish imkoniyatlarini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, resurslar sarfini kamaytirishga yo'naltirilsa, ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy vazifasi korxonaning ichki va tashqi sharoitlarini hisobga olgan holda ushbu imkoniyatlarga erishish sharoitlari va usullarini aniqlash hisoblanadi. Shu sababli ishlab chiqarishni tashkil etish texnologik jarayonlarni tashkil etish bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Korxonada faoliyatini ilmiy asosda oqilona tashkil etish va rejalashtirish uchun, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlash uchun umumiy iqtisodiy qonunlarni chuqur bilish, barcha qonun va qoidalardan unumli foydalanish, ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirishning hozirgi zamon usullaridan keng foydalanish zarur. Buning uchun esa iqtisodiy bilimlar bilan qurollanmoq, ularni chuqur egallamoq kerak.

Iqtisodiy nazariya jamiyat miqyosida yuz beradigan iqtisodiy hodisalar va voqealar, jarayonlar, ularga xos bo'lgan bog'lanishlar, ularning qonun-qoidalari va kishilar faoliyatida namoyon bo'lish shakllarini o'rgatuvchi fanidir. Iqtisodiy nazariya iqtisodiy voqealar, hodisalar va jarayonlarni iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, ya'ni ularning ilmiy in'ikosi ifodasi orqali tavsiflaydi. Lekin, iqtisodiy nazariya ijtimoiy ishlab



chiqarishning ayrim sohalari, tarmoqlari va tarmoqchalarida ro'y beradigan hodisa, voqelik va qonuniyatlarini o'rganmaydi. Bu bilan tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti fanlari shug'ullanadi.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish deganda korxonalarining ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyati sharoitida iqtisodiy qonunlarning harakati va namoyon bo'lish shakllari va eng kam mehnat, moddiy va ma'naviy harakatlar bilan eng yaxshi natijalarga erishishni ta'minlovchi yuqori samarali ish usullarini ishlab chiqish tushuniladi.

So'nggi yillarda, Yevropada, ayniqsa Amerika Qo'shma Shtatlarida "Ilmiy Menejerlar" yollanma professional boshqaruvchilar nazariyasi keng tarqala boshladi. Ular xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini bilimdonlik asosida tashkil qilishdan tashqari, yangidan-yangi shart-sharoitlarni yaratib, mehnat unumdorligini oshirish yo'l-yo'riqlari va omillarini ko'rsatib bermoqdalar.

Rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish tajribalarini o'rganishga tanqidiy qarashdan tashqari, kelgusida korxonalar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan usullarni o'rganish kerak.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishda iqtisodiy qonunlarning sanoat korxonalarini faoliyatiga ta'sirini va ularning oldiga qo'ygan vazifalarini amalga oshirish borasidagi eng samarali usullarini ishlab chiqib, uni sanoatda tadbiq qilmoqda. Bu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda ijtimoiy boylikni ko'paytirish va korxonalarida ishchilarga yaxshi sharoitlar yaratib berishga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi zamon korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish, jamiyat va shaxs manfaatini e'tiborga olgan holda o'zining mazmunli ilmiy asoslangan usul va shakllari bilan tubdan farq qilmog'i kerak. Korxonaning ishini ilmiy asosda tashkil qilish nazariyasi iqtisodiy nazariya va respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarini faoliyati xususida qabul qilingan qarorlar, mehnatni va korxonada ishlab chiqarishni tashkil qilish masalalari bo'yicha yuqorida aytib o'tilgandan boshqa, barcha korxonalarining boy tajribalari e'tiborga olingan holda, yangi serqirrali nazariy fikr, usullarni amalda tadbiq etishga asoslangan. Korxonani to'g'ri yo'lga qo'yish uchun bu yerdan asosiy jarayonlarni, moddiy-texnika xizmat qiluvchi (dastgohlarni, elektr xo'jaliklarni, moddiy ta'minot, zavod ichida yuradigan transportlarni sozlash bilan shug'ullanuvchi) uchastkalar bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Qomusi va respublikada qabul qilingan barcha qonun va qoidalar asosida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonalarida jonli va buyumlashgan mehnat tizimini yaxlit va yagona hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning asosi deb qarash;
- korxonalarida ishlab chiqarish tizimining o'zgarish shakllari va yo'llari, ishlab chiqarish faoliyatining maqsad va vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llari va baholash mezonlarini o'rganish;



- ishlab chiqarish jarayonlarining mohiyati, ahamiyati, mazmunini, asosiy va yordamchi ishlab chiqarish, korxonada infratizimining amaliy masalalarini o'rganish;
- iqtisodiy islohotlar sharoitida korxonalarda boshqarishni, ayniqsa iqtisodiy boshqarishni, rejalashtirish, baholash, moliyalash, kreditlash muammolarini yechishni o'rganish.

Agar korxonada qayta ishlovchi yoki sanoat mahsulotlari ishlab chiqaradigan bo'lsa, ishlab chiqarish rejasi zarur. Bu korxonada ishlab chiqarish va texnologik jarayon to'la tasvirlangan bo'lishi kerak. Rejadagi tadbirlar bosqichlar bo'yicha juda aniq shaklga ega bo'lishi lozim. Masalan, yangi turdagi mahsulotni ishlab chiqish, tayyorlash muddati, iste'mol bozorini tashkil etish, bozorga mahsulotni olib chiqish davri va xokazo. Bundan tashqari korxonada ishlab chiqarish quvvati, xodimlar soni, xom ashyo, materiallar manbai va sotishdan keyingi xizmatlar strategiyasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Agar ishlab chiqarish jarayonining ma'lum bir qismi, biror bir tashkilot yoki korxonaga topshiriladigan bo'lsa, ularni ham hisobga olish lozim. Bunda ularning joylashgan o'rni, fikri, tuzilgan shartnomalar, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mashina va qurilmalarning joylanishi, xom ashyo yetkazib beruvchilar, xom ashyo tarkibi haqidagi ma'lumotlar, ularning manzilgoxlari, yetkazib berish yo'llari, ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqarish qurilmalariga qo'shimcha ehtiyojlar ko'rsatilishi zarur.

Tashqi investorlar ishlab chiqarish rejasining strategik elementlariga qiziqadilar, ya'ni haqiqiy va rejadagi ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, infrastruktura holati, tarmoqning mehnat munosabatlari, strategik ishtirokchilari (sheriklari) texnologik imkoniyatlari va zaxira (manbai)lari bilan.

Investor uchun eng zaruri yangi kapitalni miqdoridir. Uni kelgusi ishlab chiqarishni rivojlanishini ta'minlashga, yangi bozor tashkil etishga ishonch hosil qildirishi va mavjud bozorlarni saqlab qolishidan foyda ko'rishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Korxonada uchun esa ishlab chiqarish rejasi katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish va moliyaviy manbalarni boshqarishni osonlashtiradi. Ayniqsa, ishlab chiqarish quvvatini ishchi kuchi, moliya va material manbalarga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydi.

Ishlab chiqarish rejasi mahsulot nomenklaturasi va sotish hajmi va marketing programmasiga asoslanishi kerak. Bu borada har bir mahsulotlar turi bo'yicha mehnat va materiallarni nisbiy normativi aniqlanishi kerak. Mehnat resursi va qurilmalarga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarish xajmiga asoslangan xolda aniqlanadi. Ulardan xarajat smetasi, ishchi kuchidan foydalanish rejasi ishlab chiqarish grafigini tuzishda foydalaniladi.

Agar ishlab chiqariladigan mahsulotlar yoki ko'rsatiladigan xizmatlarni kelgusida yanada takomillashtirish zarur bo'lsa, biznesni doimiy ravishda ilmiy izlanish va tajriba konstruktorlik ishlari bilan bog'liq ravishda olib borilishi shartdir.



Shu maqsadda asosiy e'tiborni izlanuvchanlik va yangiliklarni joriy etishda quyidagi masalalarni yoritishga qaratmog'imiz lozim:

- Joriy etish va ishlab chiqish jarayonining hozirgi holati;
- Ish hajmi, jarayonni yakunlash uchun zarur bo'lgan xodim, moddiy texnika baza, xarajat va moliyalashtirish manbalari va kutilayotgan muammolar;
- Ko'zda tutilayotgan va o'tkazilayotgan yangi ilmiy izlanishlar: vazifa, mablag', ehtiyoj, xarajat va moliyalashtirish manbalari va undan kutilayotgan yutuqlar.

Bunda mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishdagi ilmiy izlanish va tajriba konstruktorlik ishlari ahamiyatini aniq ko'rsata bilishi zarur. Yoritishda afzalligiga, qoplash muddatini yuqoriligiga alohida e'tibor berish kerak. Yangi turdagi mahsulot yoki yangi texnologiya jarayonlari yaratilishini, mavjud mahsulotlarni modernizatsiya va modifikatsiya qilishni alohida ajratib ko'rsatish lozimdir. Shu jumladan, korxonadan barcha turdagi kapital mablag'lar talab qiluvchi tadbirlar ham ko'rsatilish kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. "2017-2021-yillarda O\_zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha - Harakatlar strategiyasi" Farmoni. 7 fevral 2017 yil.
2. Kotler P., Armstrong G., Marketing asoslari. 15-nashr. Darslik. —Pearson Education Limited|| nashriyoti. 2014 yil.
3. Marketing, Bozorshunoslik/ A.Soliyev, S.Buzrukxonov /T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010- y.
4. Г.Л.Багиев, В.М.Тарасевич Маркетинг. 4-изд.-СПб., "Питер" 2012 г.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.T.: O'zbekiston, 2010.
6. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining aossiy mezonidir. –T.: O'zbekiston, 2011.
7. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N., Muxiddinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. –T.: "O'qituvchi", 2003.
8. Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari.-T.: Mehnat, 2000.
9. K.S. Xamdamov. Mikroiqtisod. -T.: TDIU, 2001.
10. E. Egamberdiev, X. Xo'jaqulov Kichik biznes va tadbirkorlik. T., Ma'naviyat, 2009.
11. Муталимов, Л. Н. Новикова. Микроэкономика. Издательство: БГЭУ. 2000. ISBN: 985-426-183-2.